

VATAN HIMOYASI - HAR BIR FUQARONING SHARAFLI BURCHI

Ubaydullayev Saidakbar Saydaliyevich

Farg`ona davlat universiteti

Harbiy ta`lim fakulteti 2- bosiqch kursanti

Alinazarov Nodirxon Nosirxonzoda

Farg`ona davlat universiteti

Harbiy ta`lim fakulteti 1- bosiqch kursanti

Annotatsiya: *u dunyoda shunday bir ilohiy kalom borki, uni tilga olgan har bir kishining qalbida olam-olam g'urur, iftixor, faxrlanish hissi jo'sh uradi.*

Bu Vatan so'zidir. Bu kalom o'z zamirida qanchadan qancha ma'noni mujassam etgan. Vatan bizning tug'ilib o'sgan tuprog'imiz, ilk qadam qo'ygan ostonamiz, muqaddas sajdahohimizdir. Uni jordan-da ortiq sevish, ardoqlash, uni xavf-xatarlardan himoya qilish shu Vatanda yashayotgan har bir insonning burchidir. Bu dunyoda Vatandan ortiq mo'tabar joy yo'q.

Kalit so`zlar: *Vatan, tuyg'u, sadoqat, fidoyilik, mustaqillik, xalqimiz, mehnatkash, yuksak, kelajagimiz, inson, bunyodkorliklar, ishlar, vazifamiz.*

Inson o'z onasini qanchalar hurmat qilib, sevs, o'z vatanini ham shunchalar ardoqlashi zarur. Chunki mehribon onamiz bizni go'daklikdan oq yuvib, oq tarab voyaga yetkazadi. Vatanimiz ham bizni o'zining qaynoq quchog'ida ulg'aytiradi. Shuning uchun ham biz Vatan so'zini dunyodagi eng muqaddas zot nomi bilan tilga olamiz, uni Ona Vatan, deya ardoqlaymiz. Vatanimiz Alloh tomonidan bizlarga berilgan eng ulug' ne'matdir. Sharqdan chiqadigan quyosh har tongda o'zining saxovatli nurlarini o'l kamiz tuprog'iga sochadi. Vatanimizda to'rt fasl ham birday o'z go'zalligi-yu tarovatini namoyon etadi. Ona diyorimizning bir hovuch tuprog'i uchun ne-ne bobolarimiz qon to'kkalar, uni ko'z qorachig'idek himoya qilganlar. Abdurauf Fitrat ta'kidlaganidek: "Vatan mening jon-u tanim, sajdahohimdir. U mening oyim, tinch-omonim, izzatim, sharafim, Ka'bam, qiblam hamda gulistonimdir".

Ona Vatanimiz Yaratgan tomonidan bizlarga in'om etilgan ilohiy ne'matdir. Vatan insonning kindik qoni to'kilgan xonodon tuprog'idan boshlanadi. Shu bois, inson ilk bor nafas olib, ulg'ayib voyaga yetgan ona zaminga mehr-muhabbat va sadoqatda bo'lishi, uning har bir hovuch muqaddas tuprog'ini ko'zlariga to'tiyodek surtishi, unga nisbatan bir umr farzandlik hissi bilan yashashi uning uchun ham farz, ham qarzdir. Uni ko'z qorachig'iday asrab-avaylash, himoya qilish nafaqat, Vatan himoyachilarining, balki shu o'l kada istiqomat qilayotgan har bir insonning burchidir. Inson bu dunyoga kelar ekan, o'ziga berilgan ne'matlarning qadriga yetib, shukr qilib yashashi kerak. Jonajon diyorimizni ham asrab-avaylash bizga ajdodlarimizdan qolgan muqaddas va sharafli vazifadir. Tarixga nazar solsak, bobolarimiz ham Vatan uchun o'z jonlarini fido qilganlar, uning hurligi,

tinchligi yo'lida kurashganlar. Jaloliddin Manguberdi, Temur Maliklar ona yurtini mo'g'ul bosqinchilaridan himoya qilish uchun o'z hayotini qurban qilgan bo'lsalar, Sohibqiron Amir Temur Vatanning farovonligi, obodligi, tinchligi yo'lida ulkan ishlarni amalgalashirgan. Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Abdulla Avloniy, Munavvarqori singari bobolarimiz millatning ertasi, Vatanning ozodligi, tarqqiyoti yo'lida shahid bo'lganlar. Biz ona yurtimizni himoya qilishni, uni asrashni shu insonlarning faoliyatlaridan o'rganishimiz lozim. Bu ulug' zotlarning ibratli hayoti bugungi kun yoshlari uchun o'rnakdir. Bugungi kun yoshlari ham ona yurt himoyasi uchun har doim tayyor turmoqlari lozim. Istiqlol yillarda jadal rivojlanayotgan O'zbekistonimiz tinchligi va farovonligi biz, kelajak egalari bo'lgan yoshlarning qo'lidadir. Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbuslari bilan qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi"ning beshinchi bandida ham xavfsizlik masalasi o'z ifodasini topgan. Hozirgi yoshlar o'z ajdodlariga munosib ravishda mamlakat xavfsizligi, tinchligi yo'lida xizmat qilishi zarur. Har yili mamalakatimiz miqyosida keng nishonlanadigan 14- yanvar "Vatan himoyachilari" kuni bugungi osuda kunlarimizning qadriga yetish, har bir fuqaroning ko'nglida ona yurtga bo'lgan mehr-muhabbatni kuchaytirishga qaratilgan qutlug' bayramdir. O'zbekiston Respublikasining Birinci Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov o'zlarining "Milliy armiyamiz - mustaqilligimizning, tinch va osoyishta hayotimizning mustahkam kafolatidir" asarlarida: "Vatan himoyachilari kunini faqat harbiy xizmatchilar emas, ayni vaqtida armiya saflarida o'z burchini o'tab qaytgan vatandoshlarimiz va ertaga xizmatga boradigan ming-minglab navqiron farzandlarimizning qutlug' bayrami deb qabul qilishimiz, uni eng ulug' va eng aziz bayram - Mustaqillik bayrami singari yuksak darajada nishonlashimiz lozim", -degan edilar. Bobolarimiz bizga shunday Vatanni meros qoldirganlar. Ular bugungi kun kabi dorilomon kunlarni orzu qilganlar. Ne baxtki, biz shunday kunlarda yashayapmiz, hayot kechiryapmiz. Shuning uchun ham har bir fuqaro o'z diyorini, tug'ilib o'sgan ona tuprog'ini himoya qilmog'i darkor. Bu ajdodlarimizdan biz avlodlarga meros bo'lib qolgan sharafli burchdir!

Buyuk adib G'afur G'ulom o'zining "Yigitlarga" deya nomlangan she'rida shunday satrlarni keltiradi:

"Yigitlar xalqlarning maqtovi, ko'rki,
Naslning javhari, davlat tayanchi.
Yurtning obodligi, to'ylar sababi,
Elning gurkirashi, fayzi, quvonchi,
Yigit omon bo'lsa, xavf-u xatar yo'q!"

Darhaqiqat, yigitlar yurtning, millatning tayanchi, himoyachisi hisoblanadi. Vatanni chin dildan sevadigan, ardoqlaydigan, yuragida Vatanga bo'lgan muhabbat hissi jo'sh urib turadigan yigitlargina Vatanning haqiqiy himoyachisi degan sharafli nomga munosibdir. Ular o'z yurti oldidagi yigitlik burchini o'tash uchun sidqidildan xizmat qiladilar. Kun-u tun Vatanimiz sarhadlarida sergak turib uni qo'riqlaydilar. Bugungi kunda ham o'z yurtining tinchligi yo'lida fido bo'lgan jasur, mard askarlar bisyor. Ular o'zlarining yigitlik burchini

bajarish yo'lida halok bo'laganlar. Shunday jasur askarlardan biri baxmallik qahramon Botir Valiyevdir. U Qирг'изистондан O'zbekiston chegarasini noqonuniy tarzda buzib o'tmoqchi bo'lган jinoyatchilarga qarshi kurashish chog'ida halok bo'lган edi. Botir Valiyev va u kabi mard askarlarning fidoyiliklari hech qachon unutilmaydi. Zero, Vatan himoyasi yo'lida jon bergenlar xalqning, millatning xotirasida mangu yashaydi!

Biz navqiron avlod barkamol, yetuk bo'lib voyaga yetsak, o'zimizda or-nomus, milliy g'ururni izchil shakllantirib borsak, Vatanimiz shunchalik qudratli davlatga aylanadi. Vatanni, xalqimiz tinchligi va osoyishtaligini ishonchli himoya qilish, vatanparvar bo'lish, sodiqlik, fidoyilik tuyg'ularini his etib yashash jannatmakon O'zbekistonimizda yashayotgan har bir insonning sharafli burchidir!

Barchamizga ma'lumki, har qanday taraqqiyot – xoh diniy, xoh ijtimoiy, xoh iqtisodiy, xoh oilaviy taraqqiyot bo'lsin, uning negizida bir narsa – tinchlik, xotirjamlik yotadi.

Bobolarimiz, momolarimiz duo qilganlarida: “Tansihatlik, xotirjamlik, dili beg'amlik bergin”, deb aytar edilar. Chunki tinchlik – Alloh taoloning insoniyatga bergan ulkan ne'matlardan biridir. Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam ham muborak hadislarida tinchlik-xotirjamlikni ulkan ne'mat ekanini ta'kidlab shunday deydilar:

“Ikki ne'mat borki, ko'pchilik odamlar undan mahrumdirlar: sihat-salomatlik va tinchlik-xotirjamlik”.

Albatta, har bir hurfikr inson bu ne'mat uchun shukrini qilmog'i lozim. Ayrim ne'matlar borki, ularning shukri “Alhamdulillah” deyish bilan ado bo'ladi, ammo tinchlik ne'matining shukri “Alhamdulillah” deyish bilan ado bo'lmaydi. Bu ne'matni asrab turish uchun har bir jabhada, avvalo ma'rifat sohasida kurashmoq kerak.

Ushbu tinchlik-xotirjamlikni bizlarga ta'min qilib beradigan, osoyishta yashamog'imizga o'zining beqiyos hissasini qo'shayotgan kasb egalari borki, hamisha ularninig xizmatlarini e'tirof etib yodimizda tutishimiz kerak. Yon davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini tiklab, dunyoning siyosiy maydonida mohirona diplomatik munosabatlarni amalga oshirib kelayotgan hukumatimiz rahbarlarining xizmatlarini ham alohida e'tirof etmog'imiz kerak.

Alhamdulillah, Vatanimiz sarhadlarini, hududiy yaxlitligini, aholini tinch hayotini va uning xavfsizligini 30 yildan beri kecha-yu kunduz ta'minlab turgan Milliy Armiyamiz – O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari mavjud. Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam:

“Alloh roziligi uchun bir kecha-kunduz Vatan sarhadini qo'riqlash bir oylik kunduzlari ro'za tutib, kechalari ibodat bilan qoim o'tkazganni savobidan afzalroqdir”, deganlar.

Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: “Alloh roziligi uchun bir kecha-kunduz Vatan sarhadini qo'riqlash dunyo va undagi barcha narsadan yaxshiroqdir”, dedilar.

Shuningdek, boshqa hadisda:

“Do'zaxda azoblanmaydigan ikki ko'z (egalari) bor: Alloh taolodan qo'rqib yig'laydigan ko'z va Alloh roziligi yo'lida mijja qoqmay kechani qo'riqchilik qilib o'tkazgan ko'z”, deb, Alloh yo'lida fuqarolar tinchligini, Vatan sarhadlarini qo'riqlashning ajr-savobi naqadar

buyuk ekanini, bu xizmatda tunni bedor o'tkazganlar uchun ulkan ajr – do'zax o'tidan omonlik berilishini mujda berdilar.

Bugungi kunimizda mamlakatimizning tinchligini ko'rolmaydigan toifalar ham bor. Ularning ayrimlari siyosiy maqsadlarini amalga oshirish uchun "inson huquqlari", "demokratiya" kabi so'zlarni o'zlariga qalqon qilib mamlakatda fitna qo'zg'ashga harakat qilsalar, ayrimlari muqaddas dinimizning muqaddas shiorlarini o'z maqsadlari uchun qalqon qilishib, jamiyatda fitna urug'ini sepishga harakat qilishmoqda. Holbuki, Alloh taolo O'zining Kalomi sharifida shunday marhamat qiladi:

"Fitna odam o'lidirmoqdan ko'ra gunohi og'irroqdir". (Baqara surasi, 191-oyat.)

Bir hududda fitna olovini yoqishning gunohi odam o'lidirganning gunohidan og'irroq ekan. Chunki, qotilning zarari bir insonning umrini zavol qilish bilan to'xtaydi, ammo fitnachining fitnasi ortidan keladigan zarar esa yillar o'tsada to'xtamaydi. Shuningdek, boshqa oyatda:

Ya'ni "Namoz fahsh va munkar (gunoh) ishlardan qaytarur", (Ankabut surasi, 45-oyat.) deb marhamat qiladi.

Agar iymonimiz, ibodatlarimiz bizlarni fahsh-munkar sanalgan amallardan, jamiyat ichida fitna qo'zg'aydigan harakatlardan qaytarmas ekan unda iymonli ekanligimizda, ibodatlarimizning maqbul bo'lishida shubha bor.

Darhaqiqat, mamlakatimiz tinchlik va o'zaro hurmat siyosatini olib borib, o'z hududida va qo'shni davlatlar hududida tinchlikni asrash uchun ulkan ishlarni amalga oshirmoqda. Bugungi kunda O'zbekistonda istiqomat qilayotgan aholi tinch-totuv umrguzaronlik qilib, o'z kundalik tashvishlari bilan band.

Ulug' shayx Alixon To'ra Sog'uniy rahmatullohi alayh aytadilar: To'rt narsa insoniylik sharafi va uning iqbolining butunligidan dalolatdir: 1) Ozodlik, hurlik va erkinlik; 2) Mehnat bilan topilgan boylikka o'zi egalik qilishi; 3) Tug'ilib o'sgan ona vatanida istiqomat qilishi; 4) Pokiza va muqaddas haq din Islomga e'tiqod qilmog'i.

Alixon To'ra Sog'uniyga ko'ra mana shu to'rt narsa kimda bo'lsa, demak o'sha inson baxtlidir, saodatlidir. Ushbu mezonga ko'ra O'zbekiston xalqi ham tom ma'noda baxtlidir. Alloh taolo Vatanimizni, sarhadlarimizning tinchligini, osmonimiz musaffoligini va dunyoda tinch-xotirjam, osuda hayotni barqaror qilsin. Tinchligimiz barqaror, mustaqilligimiz abadiy bo'lsin.

FOYDALANILGA ADABIYOTLAR:

1. Karimov. Komil avlod orzusi. -T.: Sharq.-1999.Karimov. Donishmand xalqimizning mustahkam irodasiga ishonaman. -T.-2000.
2. Davletshin M. G. "Umumiyl psixologiya" T-2000y.
3. Nemov R. S. "Psixologiya" T. 1.M. 1998 yil.
4. Gamezo A. "Psixologiya atlasi" Moskva 2001 yil.
5. Karimova V. M. "Psixologiya" T. Sharq 2002y.

6. G'oziyev E.E.“Umumiyl psixologiya” I-II jildlar. Toshkent-2002 yil.
7. Petrovskiy I.V. "Umumiyl psixologiya" "O'qituvchi", 1992 yil.
8. G'oziyev E.G. Mamatov M.M. va boshqalar «O'smir psixologiyasi» Tosh D.U 1992 y
9. G'oziyev E.G. Otanov B. “Hamkorlik psixologiyasi” T., Tosh D.U. 1992 yil